



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MUMTOZ ADABIYOTDA TASAVVUFİY TUSHUNCHALARNING QO‘LLANILISH SABABLARI VA NAZARIY ASOSLARI

Nasimova Farog‘at Abduvali qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, doktranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mumtoz o‘zbek adabiyotida tasavvufiy tushunchalarning qo‘llanilish sabablari va ularning nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi. Tasavvufiy g‘oyalarning badiiy adabiyotga kirib kelish jarayoni, ularning rivojlanishi hamda asarlarning estetik mazmunini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tasavvuf falsafasining jamiyatning ma’naviy va intellektual hayotidagi ahamiyati, hamda uning nafaqat sharq, balki jahon adabiyoti rivojiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, mumtoz adabiyot, tasavvufiy tushunchalar, badiiy ifoda, estetik mazmun, falsafiy qarashlar, islom ta’limoti, ma’naviyat.

ПРИЧИНЫ ПРИМЕНЕНИЯ СУФИЙСКИХ ПОНЯТИЙ В КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Насимова Фарогат Абдували кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои, докторант

Аннотация

В данной статье рассматриваются причины применения суфийских понятий в классической узбекской литературе и их теоретические основы. Анализируется процесс проникновения суфийских идей в художественную литературу, их эволюция и роль в формировании эстетического содержания произведений. Особое внимание уделяется значению суфийской философии в духовной и интеллектуальной жизни общества, а также её влиянию на развитие не только восточной, но и мировой литературы.

Ключевые слова: Суфизм, классическая литература, суфийские понятия, художественное выражение, эстетическое содержание, философские взгляды, исламское учение, духовность

REASONS FOR THE USE OF SUFI CONCEPTS IN CLASSICAL LITERATURE AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS

Nasimova Farog‘at Abduvali qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi,
Doctoral Student

Abstract

This article examines the reasons for the use of Sufi concepts in classical Uzbek literature and their theoretical foundations. It analyzes the process of the integration of Sufi ideas into literary works, their evolution, and their role in shaping the aesthetic content of texts. Special attention is given to the significance of Sufi philosophy in the spiritual and intellectual life of society, as well as its influence on the development of both Eastern and world literature.

Keywords: Sufism, classical literature, Sufi concepts, artistic expression, aesthetic content, philosophical views, Islamic teachings, spirituality

Mumtoz o'zbek adabiyoti tasavvuf falsafasi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Tasavvufiy tushunchalarning adabiyotga kirib kelishi va badiiy ifoda vositasiga aylanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli bo'lib, bu jarayonda bir qator mutasavvif olimlar va adiblarning xizmatlari beqiyosdir. Mazkur tadqiqotda mumtoz adabiyotda tasavvufga oid nazariy tushunchalarning qo'llanilish sabablari, ularning evolyutsiyasi va qamrovi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, tasavvufiy atamalarining adabiy matnlarda ifodalanishi, ularning badiiy-estetik vazifasi hamda tarixiy taraqqiyoti masalalari yoritiladi. Tasavvuf ta'limoti islom dini negizida shakllangan bo'lib, dastlabki davrlarda oddiy zohidlik va taqvodorlik ko'rinishida namoyon bo'lgan. Keyinchalik bu ta'limot murakkab falsafiy tizimga aylanib, islom olamining intellektual va ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi. Tasavvufning adabiyotga ta'siri esa nafaqat sharq mumtoz adabiyoti, balki jahon adabiyoti miqyosida ham chuqur iz qoldirgan hodisadir.

Tasavvufiy tushunchalarning mumtoz adabiyotga kirib kelishining asosiy sababi islom dini va uning axloqiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq. Islom olamida tasavvuf ilmi payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davridan boshlab shakllana boshlagan bo'lsa-da, dastlabki asrlarda bu ta'limot "zuhd" (dunyoviy narsalardan yuz o'girish) va "taqvo" ko'rinishida namoyon bo'lgan. Xususan, Imom G'azzoliy kabi buyuk mutafakkirlar tasavvufni islomiy ilmlar tizimida muhim o'ringa qo'yib, uning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Tasavvufshunos olimlarning ta'kidlashicha, Payg'ambar (s.a.v.) zamonlarida "tasavvuf", "so'fiy", "tariqat" kabi tushunchalar mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, o'zini ruhiy tarbiyalashga, Haq yo'lida unga vosil bo'lishga intilgan, umrini taqvo bilan o'tkazgan, qalbini poklagan, nafsini tarbiyalab, Haq muhabbatiga erishishni maqsad qilgan kishilar mavjud edi. Bu davrda tasavvufning nazariy va amaliy jihatlari ajratilmagan holda yagona bir holat sifatida namoyon bo'lgan. Mashhur olim A.H. Zarrinko'b ta'biri bilan aytganda, tasavvuf islomiy ilmlar qatorida o'ziga xos xususiyatlari bilan dastlab zohidlik ko'rinishida vujudga kelgan. Aziziddin Nasafiy o'zining "Bayon at-Tanzil" asarida tasavvuf ilk davrlarda "zuhd" va "parhezkorlik" shaklida paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, Hasan Basriy va Fuzayl Iyoz "huzn" (mahzunlik)ni zuhdga qo'shgan, Robiya Adaviya va Zunnun Misriy "muhabbat"ni omuxta qilgan, Shaqiqiy Balxiy va uning shogirdlari esa "tavakkul"ni ilgari surgan.

Tasavvufiy tushunchalarning adabiyotda keng qo'llanilishining yana bir sababi ijtimoiy-siyosiy sharoitlar bilan bog'liq. Ayniqsa, mo'g'ullar istilosi davrida va undan keyingi asrlarda tasavvuf xalqning ma'naviy tayanchiga aylangan. Bu davrda yozilgan adabiy asarlarda tasavvufiy mavzularning ko'payishi bevosita ijtimoiy ehtiyoj bilan bog'liq edi. Xususan, Xoja Ahror Valiy faoliyati bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. U nafaqat naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, balki o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy hayotida katta iz qoldirgan arbob edi. Xoja Ahror Valiyning shuhrati faqat Movarounnahrda emas, balki Xorazm, Dashti Qipchoq, Xuroson va Hindistongacha bo'lgan keng geografik mintaqada tarqalgan edi. Uning tasavvufiy qarashlari va ijtimoiy faoliyati ko'plab adiblar ijodiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tasavvufiy tushunchalarning adabiyotda qo'llanilishining muhim sabablaridan biri ularning badiiy ifoda imkoniyatlarining kengligidir. Tasavvufdagi "ishq", "may", "soqiy", "pir", "tariqat", "haqiqat" kabi tushunchalar adabiyotda ramziy ma'nolarda qo'llanilib, shoirlarga murakkab falsafiy g'oyalarni badiiy ifodalash imkonini bergan. Najmiddin Komilovning ta'kidlashicha, tasavvuf adabiyoti orqali insonning ruhiy olami, uning Allohga bo'lgan muhabbati, komillikka intilishi kabi mavzular yuksak badiiy darajada ifodalangan. Xususan, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarida oddiy latifalar va hikoyatlar orqali chuqur falsafiy-so'fiyona ma'nolar ifodalangan bo'lib, unda Qur'oni karimning yuzlab oyatlari talqin etilgan va 690 hadisga sharh berilgan. XV-XVII asrlar tasavvuf va adabiyot uyg'unligining eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Bu davrda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk adiblar

ijodida tasavvufiy tushunchalar yetakchi o‘rin egallaydi. Botirxon Valixo‘jayevning ta’kidlashicha, Xoja Ahror Valiy murshidligining ta’siri nafaqat oddiy xalq, balki o‘sha davrdagi podshohlar, vazirlar, mudarrislar, tolibi ilmlar, san’at va hunar ahlining barcha ijtimoiy guruhlari vakillariga, jumladan, mashhur shoir va mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy, iste’dodli davlat arbobi, shoir, nosir, muarrix, adabiyotshunos Zahiriddin Muhammad Boburlarga ham ta’sir ko‘rsatgan. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ko‘plab so‘fiylarning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot berib, tasavvufiy tushunchalarni badiiy adabiyotga olib kirishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu asarda Navoiy o‘zidan oldingi tasavvufshunos olimlarning qarashlarini jamlagan holda ularni badiiy uslubda ifodalagan.

Mumtoz adabiyotda ma’rifat tushunchasi ko‘pincha "ilm" va "irfon" tushunchalari bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi. Xususan, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida ma’rifat va haqiqat masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tasavvufda ma’rifat – Allohni qalb orqali bilish, ruhiy mushohada orqali haqiqatni anglash ma’nosini bildiradi. Najmiddin Komilov "Ma’rifat va haqiqat" nomli maqolasida bu tushunchalarning tasavvufiy talqinini batafsil yoritgan. Unga ko‘ra, "ma’rifat – bu oddiy bilim emas, balki ruhiy tajriba va mushohada orqali erishiladigan haqiqatdir. Haqiqat esa – Allohning zotiga va sifatlariga oid bilimdir "[2;35-37-b]. Mumtoz she’riyatda tasavvufiy tushunchalar juda keng qo‘llanilgan. G‘azal, qasida, masnaviy, ruboiy kabi janrlarda tasavvufiy atamalar ramziy ma’noda ifodalangan. Ayniqsa, ruboiy janri tasavvufiy mazmundagi she’rlar uchun qulay shakl bo‘lib xizmat qilgan. Tasavvufiy tushunchalarning mumtoz adabiyotdagi eng muhim badiiy xususiyati ularning ramziy ifoda imkoniyatlarining kengligidir. Tasavvufdagi "may", "soqiy", "pir", "xonaqoh", "mushohada", "kashf", "karomat" kabi tushunchalar adabiyotda ko‘p qatlamli ma’nolarni ifodalash imkonini bergan. Pahlavon Mahmud ruboiylari bu borada alohida o‘rin tutadi. Mashhur sharq tazkiri "Otashkadai Ozariy"da qayd etilishicha, Pahlavon Mahmud "Kanz ul-Haqoyiq" nomli masnaviy muallifi bo‘lib, keyingi vaqtlarda tasavvuf mavzuida yozgan ruboiylari juda yaxshi chiqqan. Pahlavon Mahmud ruboiylarida tasavvufiy tushunchalar sodda va tushunarli tilda ifodalangan bo‘lib, ular xalq orasida keng tarqalgan. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma’naviy" asari esa tasavvufiy adabiyotning eng yirik namunasi. Ushbu asarda bir necha yuz hikoyat va rivoyatlar keltirilgan, Qur’oni karimning yuzlab oyatlari tilga olinib, tafsir etilgan. Rumi "Qur’onning uch qavat botiniy ma’nosi bor", deb qayd etadi va ana shu ma’nolarni izchil tushuntiradi. Uning talqinida oddiy latifalar va hikoyatlar orqali favqulodda falsafiy-so‘fiyona ma’nolar ifodalanadi. Tasavvufiy tushunchalar nafaqat nazm, balki nasriy asarlarda ham keng qo‘llanilgan. Tazkiralalar, risolalar, sharhlar, pandnomalar tasavvufiy g‘oyalarni yoyishda muhim rol o‘ynagan. Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy kabi so‘fiylarning maktublari va hikmatlari nasriy tasavvufiy adabiyotning yorqin namunalaridir. Abdusattor Jumanazar tomonidan to‘plangan "Oriflar qasri hikoyalari"da Hazrati Azizonning quyidagi hikmati keltirilgan: "Yer, oriflar nazarida, bir sufrajadir. Biz «tirnoq yuzicha» deymiz. Ularning ko‘zidan hech narsa pinhon emas. Tavhid sirini bilish mumkin, ammo ma’rifat siriga yetmoq dushvordir". Tasavvufiy tushunchalar xalq og‘zaki ijodida, xususan, latifalar, rivoyatlar, maqol va matallarda ham o‘z ifodasini topgan. Xalq orasida tarqalgan "Qalandar" latifalari, "Mashrab" haqidagi rivoyatlar tasavvufiy g‘oyalarni xalq ongiga singdirishda muhim rol o‘ynagan. Qalandariya tariqati XI-XII asrlardan e’tiboran shakllana boshlagan. Ilmiy manbalar bu tariqatning asoschisi Jamoliddin Soviy ekanligini ta’kidlaydi. Qalandariya o‘ziga xos urf-odatga ega bo‘lgan tariqat bo‘lib, ko‘p olimlar uni malomatiylikdan ajralib chiqqanligini e’tirof etganlar. Qalandarlik adabiyotda, ayniqsa, xalq she’riyatida keng aks etgan bo‘lib, unda jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikka qarshi norozilik, zohid va olimlarning riyokorligiga tanqidiy munosabat ifodalangan. Tasavvufiy tushunchalar nafaqat Movarounnahr va Xuroson, balki butun islom olamida keng tarqalgan. Xususan, Xoja Ahror Valiyning shuhrati faqat Movarounnahrda emas, balki Xorazm, Dashti Qipchoq, Xuroson va Hindistongacha bo‘lgan keng geografik mintaqada tarqalgan edi. Uning tasavvufiy qarashlari va

ta'limoti turli mintaqalardagi adiblar va mutafakkirlar ijodiga ta'sir ko'rsatgan. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida tasavvufiy tushunchalarning qo'llanilish ko'lami yanada kengaydi. Misr, Suriya, Turkiya, Kuvayt kabi mamlakatlarda tasavvufga oid ko'plab kitoblar nashr etildi. Xususan, Suriyalik mashhur olim Muhammad Sa'id Ramazon Butiy Ibn Atoilloh Sakandariyning "Al-hikam al-Atoiyya" asariga ikki jildlik sharh va tahlil yozib chiqardi. Shu tariqa mumtoz adabiyotda tasavvufga oid nazariy tushunchalarning qo'llanilishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon mahsulidir. Bu jarayon VII asrdan boshlanib, turli bosqichlarni bosib o'tgan va bugungi kungacha davom etmoqda.

Xulosa tariqasida shuni ayta olamizki, Mumtoz adabiyotda tasavvufiy nazariy tushunchalarning qo'llanilishi tasodifiy emas, balki chuqur ijtimoiy, diniy va estetik ehtiyojlar bilan bog'liqdir. Islom dini va uning axloqiy-falsafiy qarashlari tasavvufning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Ijtimoiy –siyosiy sharoitlar esa tasavvufning xalq orasida keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Ular ilohiy haqiqatni ifodalash, insonni komillikka yetaklash, badiiy tafakkurni boyitish kabi vazifalarni bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Sahl ibn Abdulloh Tusiy – buyuk mutasavvuf olim. – Toshkent, 2024.
2. Комилов Н.Тасаввуф . Movarounnahr:- O'zbekiston, 2009.
3. Tursunqulova Sh. Tasavvuf falsafasining ko'p ma'noli mohiyati. – Zenodo, 2024.
4. Xurshid Davron kutubxonasi. Tasavvuf tarixi va adabiyoti. – Toshkent, 2020.
5. O'zbekiston musulmonlari idorasi. Tasavvuf haqida tasavvur: Yangilanish. – Toshkent, 2020.